

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TALIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEHNika UNIVERSITETI

**"YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY-
GUMANITAR FANLARINING DOLZARB MASALALARI"
MAVZUSIDA O'TKAZILGAN RESPUBLIKA ILMiy-NAZARIY
VA AMALiY ANJUMANI TO'PLAMiGA KIRiTilGAN
MAQOLA VA TEZiS**

MATERIALLARI

MINISTERSTVO VYSCHEGO OBRAZOVANIJA, NAUKI I INNOVACIJ RESPUBLiki
UZBEKİSTAN

Ташкентский государственный технический университет имени

Ислама Каримова

СТАТЬИ И ТЕЗИСНЫЕ МАТЕРИАЛЫ, ВХОДЯЩИЕ В СБОРНИК НА УЧНО-
ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ И ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ РЕСПУБЛИКИ ПО
ТЕМЕ «АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОЦИАЛЬНЫХ И ГУМАНИТАРНЫХ
НАУК В ОБНОВЛЕННOM УЗБЕКИСТАНЕ»

ТОШКЕНТ 2023

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

GEOLOGIYA VA KONCHILIK ISHI FAKULTETI

**“YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY-GUMANITAR
FANLARINING DOLZARB MASALALARI”**

mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya

MATERALLARI TO'PLAMI

8 may 2023 yil

TOSHKENT 2023

Yangilanayotgan O‘zbekistonda ijtimoiy-gumanitar fanlarining dolzarb masalalari// Respublika miqyosidagi ilmiy-nazariy va amaliy konferensiya materallari to‘plami –Toshkent. ToshDTU,2023.-280 6.

«Yangilanayotgan O‘zbekistonda ijtimoiy-gumanitar fanlarining dolzarb masalalari» // Respublika miqyosidagi ilmiy-nazariy va konferensiya materallari quyidagi yo‘nalishlardan iborat:

- 1- sho‘ba. Yangi O‘zbekistonni qurish jarayonida tarix fanini o‘qitishning dolzarb muammolari va yechimlari
- 2- sho‘ba. Yangi O‘zbekistonda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy islohotlar va ularning xususiyatlari
- 3- sho‘ba. O‘zbekistonning yangi rivojlanish bosqichida sifatli ta’limni rivojlantirish va zamonaviy innovatsion g‘oya va texnologiyalarni qo‘llashning ustuvor yo‘nalishlari va usullari
- 4-sho‘ba. O‘zbekistonda talaba yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish, rag‘batlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlarning takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari

Ushbu respublika ilmiy-nazariy va amaliy anjuman O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-martdagi 101-F sonli farmoyishi bilan tasdiqlangan “2022-yilda Xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejası”da belgilangan tadbirlarni amalga oshirish va O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 14-martdagi “Vazirlik tizimidagi oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tashkilotlarda 2022-yilda o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasini tasdiqlash to‘grisida”gi 97-son buyrug‘i ijrosini ta’minalash maqsadida tashkil qilingan.

Ilmiy anjumanga jamiyat hayotining turli ijtimoiy soha tarmoqlari vakillari o‘z innovatsion ishlanma va g‘oyalarini ijtimoiy hayotga tatbiq qilishga yo‘naltirilgan tezis va maqolalar kiritilgan. Ijtimoiy-gumanitar fanlarini o‘qitish metodikasi sohasida faoliyat olib borayotgan yosh mutaxassislar, magistr va doktorantlar hamda talaba yoshlar uchun mo‘ljallangan.

To‘plamdagagi materiallarning mazmuni, ilmiyligi va dalillarning asoslanganligi uchun mualliflar o‘zlari mas’uldir.

Tahrir hay’ati:

Mo‘ydinov A., Pokachalova N., Ganixanova M.B., Isakova M.B., Esanov A.O., Safarov S.B.

Chop etishga mas’ullar:

Xasanov O.A., Miliboyev Ya. A., Turonov M.Z.

Konferensiya tashkiliy qo‘mitasi

- | | |
|-------------------------------|---|
| Turabdjanov S.M.
S.Donayev | - ToshDTU rektori, t.f.d., professor, rais |
| Gaybnazarov S.B. | - ToshDTU ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, t.f.d., hamrais
«Geologiya-qidiruv va kon-metallurgiya» fakulteti dekani t. f. n., (PhD) hamrais |
| Xoliqova R.E. | - ToshDTU “O‘zbekiston tarixi” kafedrasi mudiri, t.f.d., professor, hamrais |
| Berdiyev X.A. | - ToshDTU “O‘zbekiston tarixi” kafedrasi dotsenti, t.f.n ilmiy kotib |

Ishchi guruhi tarkibi:

- | | |
|-------------------------|---|
| 1. Dehkanov M.R. | - ToshDTU “O‘zbekiston tarixi” kafedrasi f.f.d.(PhD) dots., v.b |
| 2. Xolnazarova L. S. | - ToshDTU “O‘zbekiston tarixi” kafedrasi t.f.n., dots., v.b |
| 3. Maxkamova N.U. | - ToshDTU “O‘zbekiston tarixi” kafedrasi p.f.n., dots., v.b |
| 4. Tillaxodjayeva X. D. | - ToshDTU “O‘zbekiston tarixi” kafedrasi kat. o‘qit. |
| 5. Esanov A. O. | - ToshDTU “O‘zbekiston tarixi” kafedrasi kat. o‘qit. |
| 6. Rasulova M.A | - ToshDTU “O‘zbekiston tarixi” kafedrasi kat. o‘qit. |
| 7. Tashmuratov R.S. | - ToshDTU “O‘zbekiston tarixi” kafedrasi kat. o‘qit. |
| 8. Maxammadiyeva S. | - ToshDTU “O‘zbekiston tarixi” kafedrasi kat. o‘qit. |
| 9. Safarov S.B. | - ToshDTU “O‘zbekiston tarixi” kafedrasi o‘qit. |
| 10. Atamirzayeva M.A. | - ToshDTU “O‘zbekiston tarixi” kafedrasi tayanch dokt. |
| 11. Isakova M.S. | - ToshDTU “O‘zbekiston tarixi” kafedrasi tayanch dokt. |
| 12. Eshqobilov B.B. | - ToshDTU “O‘zbekiston tarixi” kafedrasi tayanch dokt. |
| 13. Mamasadikova D.R. | - ToshDTU “O‘zbekiston tarixi” kafedrasi tayanch dokt. |

KONFERENSIYA TASHKILOTCHILARI

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Geologiya va konchilik ishi fakulteti O‘zbekiston tarixi kafedrasi

II SHO'BA

YANGI O'ZBEKISTONDA KECHAYOTGAN IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY ISLOHOTLAR VA ULARNING XUSUSIYATLARI

Расурова М.А. История развития взаимоотношений между народами Узбекистана и Греции	81
Курязова Л.Р. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда хотин-қизлар жинояти ва одам савдосига қарши курашда давлат сиёсати	92
Joldasov I.S. Yangi O'zbekistonda professional ta'lif islohotlari	96
Исакова М. Хунармандчилик ва тадбиркорлик соҳасида хотин-қизларнинг ижтимоий- иқтисодий ҳаётдаги ўрнининг юксалиши	100
Rustamova M.M. Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy islohotlarda faolligini oshirish masalalari	100
Якубов Ю.М., Исаева Ш.А., Исломова Р. Янги Ўзбекистонда ислом қадриятларининг ёшлар тарбиясидаги ўрни	104
Шакиров И.Р. Дипломатические связи Узбекистана и стран ACEAH в 2017-2022 года (на примере Сингапура и Таиланда)	108
Toshqulova Sh. S. qizi O'zbekiston rivojlanishining yangi bosqichida Shanxay hamkorlik tashkiloti bilan hamkorligi – Samarqand sammiti	111
Eshqobilov B. O'zbekiston Respublikasining Qirg'iz Respublikasi bilan o'zaro munosabatlari va aloqalari (2016 – 2022 yillar).....	116
Tojiyev D. Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida O'zbekiston va Qozog'iston o'rtaсидаги hamkorlik tarixi	121
Ҳайитов У., Омонова Ч. Сиёсий етакчи имижи ва унинг хусусиятлари.....	126
Hayitov U Xotin-qizlar siyosiy yetakchiligining o'ziga xos xususiyatlari va dolzarbligi.....	131
Якубов Д.К. О повышении инвестиционной привлекательности государства.....	135

Республикаси Президенти фармонида таъкидланган¹² бўлиб, бу борада кенг кўламли ишлар амалга оширилмоқда.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш жоизки, мамлакатимизда мустақиллик йилларида Қорақолпоғистон Республикаси ва Хоразм вилоятида хотин-қизлар жинояти ва одам савдосига қарши курашда давлат сиёсати бўйича олиб борилаётган ишлар албатта ўз натижасини бериши лозим. Зоро, хотин-қизларнинг мамлакат иқтисодий, сиёсий ва ижтимоий ҳаётининг барча жабҳаларида фаоллигини ошириш давлат сиёсатининг асосий вазифаларидан биридир.

YANGI O'ZBEKISTONDA PROFESSIONAL TA'LIM ISLOHOTLARI

Joldasov Ixtiyor Suyindikovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O'zbekiston tarixi kafedrasи katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarini kasbga yo'naltirish ishlarining pedagogik asoslari, bu borada muhit va jamiyat hamkorligi, mehnat texnologiyasi va psixologiyasi, mehnat sharoitining ustoz-shogirdlik, murabbiylik ishlarining to'g'ri yo'lga qo'yilishi singari muhim omillar bilan bog'liq bo'lgan holatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Yoshlar, mutaxassis, raqobat, kasbga yo'naltirish, kasb, hunar.

Bugungi kunda umumta'lim maktablarining eng zarur hayotiy vazifalardan biri o'quvchi-yoshlarni kasb tanlashga to'g'ri yo'naltira olishdir. Respublikamiz mustaqilligidan keyingi yillar davomida bu sohaga jiddiy e'tibor berila boshlandi, ta'lism sohasining rivoji uchun yetuk mutaxassislar, olimlar jalb etildi. Kasb-hunarga yo'naltirishdan maqsad o'sib kelayotgan yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashdir. Ularni kasb hunarga yo'naltirish orqali, bo'lajak kasbiy qarorlarni shakillantirish, kasbni erkin va mustaqil tanlashlari uchun kasb-hunarga yo'naltirish ishlariga mustahkam zamin yaratish zarur. Kasbga yo'naltirishda ularning qiziqishi, layoqati, qobiliyatlariga va jamiyatning turli xil kasblarga bo'lgan ehtiyojiga muvofiq holda kasb tanlashga yordam berish maqsadli faoliyatdir.

Kasb so'zining ma'nosi—insonlarning hunari, faoliyat turi va hayot kechirishlari uchun manba xizmatini o'taydigan mashg'ulotni bildiradi. Kasbga yo'naltirish ishlarining mohiyati – yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashda uni har tomonlama va barkamol rivojlantirishning shart-sharoitidir.

Kasbga yo'naltirish – o'quvchining o'z ehtiyojini oqilonqa cheklaydigan shaxs sifatida barkamol kamolotga yetishining pedagogik jarayoni bo'lib, nafaqat pedagogik tashqi ijtimoiy bog'liq bo'lgan tafakkuri va xatti-harakatlarini ongli ravishda o'z-o'zini boshqaruvchidir.

Kasb va kasbga yo'naltirishning nazariy shart-sharoitlari deganda, kasb – kasbga yo'naltirish faoliyatini samarali tashkil etishga qaratilgan turli xil qarashlar majmuasi,

g'oyalari va tasavvurlar yig'indisidir. Bu yoshlarning shaxsiy qiziqishlari, layoqati va qobiliyatlariga mos keladigan, jamiyat uchun zarur kasblarga yo'llashdir.

Kasbga yo'naltirishning maqsadi — shaxsning ma'lum bir kasbiy faoliyat yo'nalishiga moyilligini aniqlashdir. Ushbu amaliyot har bir bola iste'dodli va ma'lum bir sohada o'z iste'dodini tatbiq eta oladi degan fikrga asoslanadi. Kasbga yo'naltirishning turli xil usullari mavjud — kelajakdagagi kasbni tanlashda duch keladigan o'spirin bilan, uning qiziqishlari va sevimli mashg'ulotlarini muhokama qiladigan mutaxassislar bilan suhbatlar, uchrashuvlar ot'kazilish lozim. Kasb-hunar maktablarida o'quvchilarga maslahat berishni boshlashdan oldin, guruh rahbari o'z o'quvchilarining rivojlanishini kuzatish imkoniyatiga ega, natijalarini ta'lim sifatida o'rganish, va sinfdan tashqari ishlar. Bundan tashqari, batafsilroq tahlil qilish uchun so'rovnomalardan foydalanish va savollar bilan shakllarni to'ldirish va yana psixologik-pedagogik xususiyatlarni kompilyatsiya qilish, shuningdek, ota-onalar bilan maslahatlashuv suhbatlani olib borish kerak.

Ota-bobolarimiz asrlar davomida mehnatni ulug'lab kelishgan, o'zlarini sidqidildan mehnat qilishgan. Bizga ulardan meros bo'lib qolgan barcha xazinalar ilmiy-badiiy kitoblar, turli xildagi sa'nat asarlari, me'morchilik obidalari va boshqa narsalar ana shu mehnatning mahsulidir. Mehnat faqat hayotiy zarurat va moddiy farovonlik manbayi bo'lib qolmay, yoshlarda yaxshi xulq va ma'naviy sifatlarni vujudga keltiradi; loqaydlik va beparvolik kabi illatlarni bartaraf etib, kishida quvonch va m'amununlik hislarini paydo qiladi. Odam dunyodagi hamma yaxshi narsalarga ega bo'lsa-yu, lekin o'zi mehnat qilmasa, u baxtli bo'la olmasligi badiiy asarlarda o'z aksini topgan; ezgu maqsadlarga erishishning eng muhim omili bo'lgan mehnat tufayli mamlakatning gullab-yashnashi mumkinligi qayd etilgan. Maktabning vazifasi bolalarni mehnatni hurmat qilish va sevish, mehnatning ahamiyatini tushuntirishdir. [1]

Hozirgi kunda kasb-hunar ta'limi tizimida ta'lim beruvchilarga nisbatan samarali faoliyatini tashkil qilish, o'quv, ilmiy hamda metodik tadbirdilarni to'g'ri rejalashtirishi va amalga oshirishi, kasbiy pedagogik mahoratini uzlusiz oshirib borishda o'zgarib boruvchi zamonaviy talablarga tezkor ravishda moslashib borish kabi talablar qo'yilmoqda. Buning uchun har bir kasb-hunar ta'limi tizimida faoliyat yuritayotgan pedagog va kasbiy ta'lim ustalari kreativlik sifatlariga ega bo'lishi ularda o'quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda innovatsion g'oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslik kabi fazilatlarga ega bo'lishlari, ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan innovatsion g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish, ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo'lish lozim. Yani, pedagog kadrlarning ta'lim-tarbiya jarayonlaridagi raqobatbardoshligi uning ilg'or ta'lim texnologiyalarini o'zlashtirish qobiliyati, o'zgaruvchan hamda oshib borayotgan kasbiy talablarga moslasha olishi kerak. Shuni ham ta'kidlash zarurki, barcha yigit-qizlar, o'quv predmetlari qatorida alohida o'z mavqeiga ega bo'lgan murakkab predmetlardan biri – bu mehnat ta'limi fanidir. Mazkur fanni o'zlashtirgan o'quvchiga xalq xo'jaligining turli tarmoqlariga xos kasblar yuzasidan materiallarni, asbob-uskunalar, mashina va moslamalarni nafaqat o'rganishi, ularidan foydalanish hamda ular yordamida unumli foydali maxsulotlar tayyorlashni uddalay olishi kerak. [2]

O'zbekiston Respublikasida ham uzoq davrlar mobaynida yoshlarning mehnat va kasb

tayyorgarligi, ularni unumli mehnat jarayonidagi faoliyatga tayyorlash, kasb hunar o'rgatish, xalq xujaligining turli sohalarida mehnat qilishga o'rgatishga tayyorlashning turli masalalari bilan ko'pgina olimlarimiz shug'ullanadilar. Ular o'z tadqiqot natijalarini nomzodlik va doktorlik dissertasiyalari, monografiyalar, o'quv qo'llanmalari tarzida bayon etdilar.

Asrlar mobaynida o'zining ilg'or madaniyati, milliy qadriyatlari, o'zligining noyob belgilari, ko'rinishlari bo'lgan urf-odatlari, amaliy san'ati, xalq hunarmandchiligining boy merosi bilan xalqimiz faxrlanib, e'zozlab, uluglab keladi. Turli olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilib, xalq ustalari, hunarmandlari, tomonidan rivojlantirib, kengaytirilgan, xalq milliy amaliy san'ati,xalq bezak san'ati, badiiy san'at kabi juda kup xildagi nomlanib kelgan xalq hunarmandchiligi asoslarini hozirgi zamon xalq ta'limi tizimidagi o'rta (umumta'lim, kasb-hunar, maxsus) maktablari o'quv dasturlarida mustaqil predmet sifatida o'z aksini topmagan. Xalq hunarmandchiliginerturli sohalarini, yo'nalishlarini, qirralarini turli davlatlarda olimlarimiz ilmiy tadqiqotlarini yoritdilar.[3]

O'quvchilarni ta'lim tizimida mustaqil mehnat faoliyatiga puxta tayyorlash va ularning kasb-hunarini o'z qobiliyatlariga yarasha to'g'ri kasb tanlashlariga erishish uchun maktab o'qituvchilarining pedagogik mahorati, bilim saviyasi, didaktik (shuningdek, akademik, tashkilotchilik,pertseptiv va h.k.) qobiliyatları yuksak bo'lishi, fan asoslarini turmush bilan bog'lab o'rganilishi, to'garak va qo'shimcha, yordamchi kurslarni oqilona uyushtirilishi,kasb-hunar maktablarida suhbatlar, munozaralar o'tkazilishi,sayohatlar, uchrashuvlar, fotoko'rgazmalar tashkil qilishlari zarur. Shuningdek, yoshlarning kasb tanlashdagi reallikni vujudga keltirish maqsadida kasb-hunar maktablarida ilg'or kasb egalari, kasb faxriylari, kasb sulolalari bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari, kechalar va ma'ruzalar tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu tadbirlar o'quvchining shu kasbga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi.

Adabiyotlar

1. R. Mavlonova, N. Raxmonqulova, N.Voxidova, K.Matnazarova Pedagogika (Umumiyy pedagogika nazariyasi va amaliyoti) d a r sl ik 2012 - yil 26 dekabrdagi "507"-sonli
2. "Kasbga yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari"SH.S.SHaripov, K.Davlatov, G.S.Nasriddinova. Toshkent – 2007.
3. Ixtiyor Suyindikovich Joldasov.(2021) "Kasb-hunar ta'limi tarixining professional ta'lim samaradorligidagi o'rni va ahamiyati".Academic Research In Educational Sciences. Volume 2,Issue 6 , B.723
4. Joldasov Ixtiyor Suyindikovich" kasbiy pedagogika tarixi" Экономика и социум 04(60)2022
5. Joldasov Ixtiyor Suyindikovich "Tasks Implemented in Professional Schools to Send Students to Professions" International Interdisciplinary Research Journal.2. 2, Year 2023 ISSN: 2835-3013. B.254-258